
PILLAKORLAR RAG'BATLANTIRILMOQDA

Qo'shtepa tumani pillakorlari "kumush tola" xirmoniga o'zlarining munosib ulushlarini qo'shmoqdalar. Pillakorlar pandemiya sharoitida ham karantin qoidalariga amal qilgan holda sara pilla hosili yetishtirdilar.



Ayni kunlarda tuman hokimi I. Novikov va sektor rahbarlari tomonidan ipak qurti parvarishi bilan mashg'ul kasanachilar bilan uchrashuvlar tashkil etilib, faol pillakorlar rag'batlantirilmoqda. Sektor rahbarlari tomonidan ularga esdalik sovg'alari topshirilmoqda.



Pillakorlarga zarur shart-sharoit yaratilayotgani, ular har tomonlama qo'llab-quvvatlanayotgani sifatli hosil yetishtirish va uni o'z vaqtida yig'ib olishda muhim omil bo'lmoqda.

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati

2020-05-12 21:34:16